

“YoShLAR OVOZI” ISTE’DODLILARNI SARALAMOQDA



“YoShLAR OVOZI” ISTE’DODLILARNI SARALAMOQDA

Ayni kunda tumanimizda yosh, iste'dodli, san'atga oshno yoshlarni tanlab olish, ularni aniqlash va ularning katta sahnalarga qadam qo'yishlarini ta'minlash maqsadida o'tkazilayotgan "Yoshlar ovozi" tanlovi qizg'in pallaga kirgan.

Guliston mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisi Mehridin Parpiyevning bizga bergan ma'lumotiga ko'ra, bugun mahallada joylashgan kasb-hunar maktabida 4-sektor kesimidagi mahallalar yoshlari o'rtasida mazkur tanlov o'tkazildi.

Tanlovda ishtirok etgan qatnashchilarning iste'dodi va mahoratiga hakamlar hayati adolat va haqqoniylik asosida baho berdilar. Tanlov yakunida g'olib bo'lgan yosh iste'dodlar va faol ishtirokchilarga qimmatbaho sovg'a va faxriy yorliqlar taqdim etildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-04-11 13:28:05